



XORAZM VILOYATI YURIDIK TEXNIKUMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

*Xorazm viloyat yuridik texnikumi o'quvchisi
Xajiyev Izzatbek G'afur o'g'li*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda yuridik kadrlarning yetishib chiqishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan ta'lif dargohi bo'lmish Xorazm viloyati yuridik texnikumida o'quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida batafsil so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati yuridik texnikumi, imkoniyatlar, ARM, yuridik klinika, Street law.

РЕФОРМЫ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫЕ В ЮРИДИЧЕСКОМ ТЕХНИКЕ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Студент Хорезмского областного юридического техникума
Хажиев Иззатбек Гафурович

Абстрактный. В этой статье нехватка юридических кадров в нашей стране Подробно будут рассмотрены возможности, созданные для студентов Хорезмского областного юридического техникума, как учебного заведения, вносящего достойный вклад в свою продукцию.

Ключевые слова: Хорезмский областной юридический техникум, возможности, АРМ, правоведение.

Mamlakatimizda yuridik ta'lif olish uchun keng imkoniyatlar yatilmoqda, bu borada yuridik texnikumlar faoliyati ham juda muhimdir. Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lif tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Xususan, ta'lif tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta'lif to'g'risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lif sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lif tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lif, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lif tashkilotlari va ularning fili allari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lif





muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan beriladigan bo'ldi. Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin. Ma'lumki, yuridik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2018-yil 13-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan Adliya vazirligi tuzilmasida har bir hududda bittadan –14 ta yuridik texnikum tashkil qilindi. Yuridik soha rivojidagi tizimli va keng ko'lamli ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2020-yil 30-oktabr kuni "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Xorazm viloyati yuridik texnikumi ham vohadagi yurisprudensiya sohasiga qiziquvchi yoshlarni o'ziga jamlab olgan ta'lim dargohidir. Biz ham aynan huquq sohasiga qiziqqanimiz uchun aynan Xorazm viloyati yuridik texnikumiga hujjat topshirib, talaba bo'lishdek baxtga tuyassar bo'ldik. Keling, endi, respublikamizdagi yuridik texnikumlarda yaaratilgan imkoniyatlarni Xorazm viloyati yuridik texnikumi misolida ko'rib chiqsak. Avvalambor, shuni ta'kidlab o'tish joizki, Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'z kasbini sevuvchi pedagog va xodimlar jamoasi hamda tirishqoq, ilmga chanqoq yoshlarni birlashtirgan sevimli ta'lim dargohidir. Texnikumimizda o'quvchilarining o'z mutaxassisliklari bo'yicha o'qib, zarur bilimlarni egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Avvalambor, ta'lim jarayoni haqida gapiradigan bo'lsak, ta'lim kredit modul tizimi asosida tashkil qilingan. Darslar o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega pedagoglar tomonidan turli xil interfaol metodlar asosida tashkil qilinadi. Biz o'quvchilar har bir darsda mavzuga doir ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz, shu bilan birga, bilimlarimizni ham mustahkamlab olamiz. Darslardan keyin esa bo'sh vaqtimizni mazmunli o'tkazish maqsadida texnikumda tashkil qilingan fan va sport to'garaklari, klublarga faol qatnashamiz.

Shu o'rinda, texnikumdagagi eng sevimli maskanimiz hisoblangan Axborot resurs markazi haqida kengroq to'xtalmoqchimiz. Xorazm viloyati yuridik texnikumi Axborot resurs markazi tom ma'nodagi turli xil darsliklar, badiiy, ilmiy, siyosiy adabiyotlar xazinasidir. Kitob insonning eng sodiq va hamisha to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi hamrohidir. Kitob bilan do'st tutingan odam aslo noto'g'ri yo'lga qadam bosmaydi. Shuning uchun ham biz o'quvchilar bosh vaqtimiz topildi deguncha kutubxonaga shoshamiz. Bizning kutubxonada kitob mutolaa qilish va internetdan zaruriy adabiyotlarni topib o'qish uchun ham barcha imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, texnikumimizda Yuridik klinika faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning



vazifasi fuqarolarni qiynayotgan huquqiy savollarga tez va aniq javob berishdir. Yuridik klinikada texnikum o'qituvchi va o'quvchilari volontyor sifatida qatnashib, muntazam ravishda o'z bilimlarini amalda qo'llab, mustahkamlab boradilar. Street law volontyor o'qituvchi va o'quvchilari esa muntazam ravishda viloyatimizdagi maktablarga borib o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirishg o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Bundan tashqari texnikumimizda eng so'nggi zamonaviy uslubda jihozlangan "Shaxmat" xonasi ham bor. U yerga kirishingiz bilan shaxmat maydoniga tushib qolgandek bo'lasiz. Darsdan keyin "aql charxi" bilan shug'ullanuvchi o'quvchi-yoshlarni aynan shu xonadan topishingiz mumkin. Shu bilan birga o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida texnikumda ma'naviy -ma'rifiy tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib kelinadi. Zeroki, birinchi prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, yuksak ma'naviyat yengilmas kuchdir. Xulosa o'mida shuni ishonch bilan ayta olamanki, yuridik soha rivojidagi bugungi islohotlar samarasi o'laroq, kelgusida texnikum o'quvchilari orasidan soha rivojiga o'z hissasini qo'shishga qodir yosh, yetuk, bilimli yuridik kadrlar yetishib chiqadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyayev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategisi. O'zbekiston Toshkent-2022.

2. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-2021

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. 2020 йил, 24 январь.